O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“IQTISODIYOT NAZARIYASI” KAFEDRASI

# “Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarida yashil iqtisdiyotni rivojlantirish muammolari”

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

## MATERIALLARI TO‘PLAMI

**2025-yil 18-aprel**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**“IQTISODIYOT NAZARIYASI” KAFEDRASI**

# “Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarida yashil iqtisdiyotni rivojlantirish muammolari”

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**2025-yil 18-aprel**

**Samarqand-2025**

**UO’K:** 338.46:502(575.1)

I 57

**KBK:** 65.9(5O‘z)

**Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarida yashil iqtisdiyotni rivojlantirish muammolari**// Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2025 yil 18-aprel. Samarqand, SamISI, 2025. – 554 bet.

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:**

**I.I.Ayubov –** “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi mudiri, i.f.f.d., PhD, dotsent;

**M.I.Ibragimova** – iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, PhDdotsent v.b.;

**Nashr uchun mas’ullar:**

**D.X.Aslanova** – iqtisod fanlari nomzodi, professor;

**M.M.Muxammedov** – iqtisod fanlari doktori, professor;

**A.B.Shakarov** – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;

**X.A.Ulashev** – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;

**L.N.Xalikova** – iqtisod fanlari doktori, professor v.b.;

**N.A.Kamilova** – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;

**Yu.P.Urunbayeva** – iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent;

**F.F.Salomov** – iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

**Sh.A.Quldoshev** – iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

**A.A.Ablaizov -**– iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, katta o’qituvchi;

**O.M.Ro'zibayev-**–iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

**S.O’. Xusenov** - “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi katta o’qituvchisi.

**Sahifalovchilar:**

**T.M.Amirov** – SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi assistent-stajyori;

**T.I.Shukurov** – SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi assistent-stajyori.

Ushbu konferensiya mavzusi «Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish muammolari» ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim masalalarni o'rganishga qaratilgan. Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga, xizmat ko’rsatish sohasining yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yangi yondashuvlarga ehtiyoji ortmoqda. Konferensiyada, ayniqsa, xizmat tarmoqlarida energiya samaradorligi, resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha innovatsion texnologiyalarning tatbiqi bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari muhokama qilinadi. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga asoslangan xizmat ko’rsatish sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda davlat siyosati, iqtisodiy stimullar va sektorlararo hamkorlikning ahamiyati o'rganiladi. Ushbu tadbirda qatnashchilar

ilmiy-tadqiqot ishlarini taqdim etib, zamonaviy iqtisodiyotdagi ekologik muammolarga innovatsion yechimlar topishga qaratilgan qarashlar va tajribalari bilan o'rtoqlashadilar.

Ushbu to‘plamda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilarning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan maqola va tezislar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar, magistrlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, davlat organlari xizmatchilari va shu soha mutaxassislari o‘z faoliyatlarida foydalanishi mumkin.

**Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.**

Данный сборник содержит статьи и тезисы профессоров-преподавателей, докторантов и независимых исследователей, посвящённые проблемам развития зелёной экономики в отраслях сферы услуг в условиях формирования инновационной экономики.

Материалы сборника могут быть использованы в своей деятельности бакалаврами, магистрами, докторантами, независимыми исследователями, служащими государственных органов и специалистами в этой области, обучающимися по направлению экономики.

**Тезисы печатаются под авторским редактированием. Авторы несут ответственность за цифры, факты, выводы и рекомендации, представленные в них. Некоторые из их мнений могут не совпадать с взглядами организационной группы.**

This volume presents a compilation of scholarly articles and abstracts authored by university professors, doctoral candidates, and independent researchers. The contributions focus on key issues related to the development of the green economy in the service sector, considered within the broader context of the transition toward an innovation-driven economic model.

The materials included herein are intended for use by undergraduate and graduate students, doctoral researchers, independent scholars, public officials, and professionals specializing in the field of economics.

**All abstracts are published as submitted, under the editorial responsibility of the respective authors. The authors are solely accountable for the accuracy of the data, facts, interpretations, and policy recommendations contained in their work. The views expressed in individual papers do not necessarily reflect those of the editorial board or the organizing committee.**

**ISBN:** 978-9910-648-05-2

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025.
© “STEP-SEL” MChJ. Nashriyoti, 2025.

# KIRISH SO'ZI

**Hurmatli konferensiya ishtirokchilari,**

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti yangi global chaqiriqlarga javob berish uchun o'zgarishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish masalalari iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlariga aylangan. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Ushbu soha nafaqat iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi, balki ekologik muammolarni hal qilishda ham o'z hissasini qo'shishi zarur.

Bugungi konferensiyaning asosiy maqsadi – yashil iqtisodiyot prinsiplari asosida xizmat ko'rsatish sohasidagi tarmoqlarni rivojlantirish muammolarini muhokama qilishdir. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi ekologik barqarorlikni saqlash, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishdir. Xizmat ko'rsatish sohasida bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan tashabbuslar, innovatsion texnologiyalar va boshqaruv yondashuvlari bizga barqaror rivojlanishning yangi imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi.

Konferensiya davomida, biz yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi eng muhim muammolarni, shu jumladan energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik xizmatlarning rivojlanishini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyot shakllanishining xizmat ko'rsatish sohasiga ta'siri va bu sohaning ekologik barqarorligini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar haqida fikr almashamiz.

Umid qilamizki, ushbu konferensiya ishtirokchilari o'z tajribalarini baham ko'rib, yashil iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasidagi rivojlanishiga yanada samarali hissa qo'shish yo'llarini topadilar.

Sizlarni bu muhim mavzuda o'z fikrlaringizni bildirishga taklif etamiz. Rahmat.

4. Sh.Mustofoqulov "Raqamli iqtisodiyot-Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi davri". Xalq so'zi gazetasi-40. 2020.02.25.
5. Xoliqova L. N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. Samarqand, 2024, 352 bet
6. Xoliqova L.N., Hamroqulova O.D. Iqtisodiy fanlar tarixi. Darslik. Samarqand, 2024. 430 bet
7. Yuldashev Sh., Usmonova D., Xoliqova L., Germaniya M. Elektron tijorat va biznes. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2021, 238 bet.
8. Xoliqova L. Ayubov I. Shodmanova Z., Normurodov U. Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2024, 307 bet 5.
9. Khalikova L. N.Economic. thoughts of great people. Monograph. Shawnee, USA. 2021.
10. www.worldbank.org
11. www.tsue.uz

## INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TARMOQLARIDA YASHIL IQTISDIYOTNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

**Urunbayeva Yulduz Pirnazarovna— I.f.f.dok. dotsent**
**Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti**
**Ulduzurunbaeva75@gmail.com Tel: +998905052105**
**Qarshiyeva Shahrizoda Xoliqul qizi – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi**

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy va metodologik masalalari, raqamli xizmat ko‘rsatish sohasini yashil iqtisodiyot asosida rivojlantirish muammolari va yechimlari, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish, hududlarda raqamli xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturlari va strategiyalarini ishlab chiqish masalalari hamda boshqa tarmoqlar va sohalarni yashil iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** innovatsion iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, raqamli xizmatlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik, ekologik texnologiyalar.

Global miqyosda ekologik muammolarning kuchayishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi yashil iqtisodiyotga o'tishni dolzarb masalaga aylantirdi. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmat ko'rsatish sohasi, ayniqsa, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda, yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda katta salohiyatga ega. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat

ko'rsatish tarmoqlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning muammolari va yechimlari ko'rib chiqiladi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb masalalaridan biri xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta’minlashdir. Bu jarayon raqamli texnologiyalar, ekologik innovatsiyalar va barqaror rivojlanish strategiyalarini o‘z ichiga oladi. Xizmat ko‘rsatish sohasi global miqyosda yashil iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadigan xizmatlarni rivojlantirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy va metodologik masalalari

Yashil iqtisodiyot nazariyasi ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga asoslanadi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari quyidagilarga tayanadi:

Barqaror rivojlanish tamoyillari – bu model ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sohasida resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiyani tejashni nazarda tutadi.

Yashil texnologiyalar – innovatsion iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biri bo‘lib, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish va ekologik zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni joriy qilishni ta’minlaydi.

Davlat siyosati va tartibga solish – yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun davlat tomonidan rag‘batlantirish tizimlari, subsidiyalar va ekologik soliq siyosati joriy qilinishi zarur.

Metodologik jihatdan qaraganda, yashil iqtisodiyot modelini xizmat ko‘rsatish sohalariga tatbiq etish quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Ekologik innovatsiyalarni joriy qilish – xizmat ko‘rsatish sohalarida ekologik toza texnologiyalarni tadbiq etish va xizmatlarning ekologik ta’sirini kamaytirish.

Samaradorlik va barqaror rivojlanish indekslar**i** – yashil iqtisodiyotning rivojlanishini baholash uchun maxsus indikatorlar va ko‘rsatkichlardan foydalanish.

Ekologik ta’sirni tahlil qilish – har qanday iqtisodiy faoliyat ekologik ta’sirga ega bo‘lib, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari uchun ekologik ta’sirni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish lozim.

Yashil iqtisodiyot asosida raqamli xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish muammolari va yechimlari

Raqamli xizmatlar yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslanib rivojlantirilsa, bu atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Shunga qaramay, bu jarayonda quyidagi muammolar mavjud:

Muammolar: Raqamli infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganli**gi** – ba’zi hududlarda internet va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan bo‘lib, bu yashil iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoniga salbiy ta’sir qiladi.Kiberxavfsizlik masalalar**i** – raqamli xizmatlar kengaygan sari

ma’lumotlarning himoyalanishi va shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda.Raqamli tafovut – jamiyatning barcha qatlamlari uchun raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bir xil emas.Ekologik ta’sir – raqamli xizmatlar bevosita ekologik muammolarni kamaytirishga hissa qo‘shsa-da, ular ham elektr energiyasi iste’moli orqali atrof-muhitga muayyan ta’sir ko‘rsatadi.

Yechimlar: Raqamli infratuzilmani rivojlantirish – davlat va xususiy sektor hamkorligida internet tarmog‘ini kengaytirish va raqamli xizmatlarni takomillashtirish.Raqamli tafovutni kamaytirish – aholining barcha qatlamlari uchun raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish.

Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish – raqamli xizmatlarning energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish.Yashil iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish

Hududiy rivojlanishda yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llash katta ahamiyatga ega. Xususan, ekologik toza transport, qayta tiklanadigan energiya manbalari va barqaror qishloq xo‘jaligi sohalarida yashil iqtisodiyotni joriy etish mumkin.

Yashil iqtisodiyot va innovatsion xizmat ko‘rsatish sohasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, raqamli texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni birlashtirish orqali barqaror iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat siyosati, xususiy sektor investitsiyalari va texnologik rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil iqtisodiyotning kelajakdagi istiqbollari xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, hududiy rivojlanish va boshqa tarmoqlarda ekologik barqarorlikni ta’minlashga asoslanadi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish barqaror rivojlanish va ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat ko‘rsatish sohasida ekologik toza va samarali yechimlar yaratish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan dasturlar va strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Biroq, bu jarayonda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kiberxavfsizlik masalalari va raqamli tafovut kabi muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun davlat siyosati, investitsiyalar va innovatsiyalarning muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Yormonqulova N. "Yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati va O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi". Qo'qon Universiteti Xabarnomasi, 2024.ResearchGate

2. Sharipov K. "Qishloq xo'jaligida innovatsion xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari". Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2023.ResearchGate

3. Djalilova N. "Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli". Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar, 2022.Iqtisodiyot Journal+1Lex.uz+1

4. Saidova S.A. "Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirishning innovatsion yo‘llari". 2024.Semantic Scholar+1Semantic Scholar+1

5. "O‘zbekiston Respublikasini 'yashil' iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi". Lex.uz, 2019.Semantic Scholar+3Lex.uz+3ResearchGate+3

## YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING AYRIM MASALALARI

**Shukurov Izzatillo Xikmatilloyevich- t.f.n., dots., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Servis” kafedrasi mudiri**

**Annotatsiya:** Maqolada milliy va jahon iqtisodiyotining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning ayrim masalalari yoritilgan. O’zbekiston agrosanoat majmuasining hozirgi holati va uning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, mamlakat aholisiningning oziq-ovqat mahsulotlariga bo’lgan ehtiyojini ta’minlashning ustuvor yo’nalishlari aniqlangan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo’yicha chora- tadbirlar va takliflar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat importi, qishloq xo’jaligini madernizatsiya qilish.

Ma'lumki, oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan keng tarmoqli sohasi hisoblanib, uning tarkibida go‘sht-sut, yog‘-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, meva-sabzavot konservalari, turli-tuman ichimliklar, shakar, non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalarni o’z tarkibiga birlashtirgan. Kishilik jamiyatining rivojlanishi davomida tabiat yaratib bergan ne’matlardan foydalangan. Jahon aholisi sonining ortib borishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo’lgan extiyojini ortishiga olib keldi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va uning xavfsizligini ta'minlash masalasidir.

Hozirgi kunda insoniyatning tabiatga nisbatan salbiy munosabatda bo’layotganligi, unga antropogen ta’sirning kuchayib borishi, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o’rtasidagi oziq-ovqat bilan ta’minlash darajasining nomutanosibligi, iqlim o‘zgarishlari kabi qator salbiy omillarni keltirishi mumkin. Chuchuk suv, o‘rmonlar, biologik xilma-xillik keskin sur’atlarda kamayib bormoqda. Tuproq unumdorligi pasayib, yerlarning meliorativ holati yomonlashib bormoqda. Natijada, bugungi kunda jahon aholisining 1/10 qismi, yoki qariyb 800 milliondan ortig’i to’yib ovqatlanmayotgan bo’lsa, 2050-yilga borib bu miqdor 2 mlrd. kishiga yetishi kutilmoqda. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi[1]. Mazkur holat mamlakatlar aholisini oziq-ovqat bilan

narxlar esa barqaror bo'ladi. Yashil iqtisodiyot raqobat subyektlarning samaradorligini oshiradi va resurslarning optimal taqsimlanishini ta'minlaydi. Davlatlar o'rtasidagi muommolar yechimida yashil iqtisodiyot infratuzilma bosqichlarini kuchaytirish maqsadida iqtisodiy, siyosiy va texnologik jarayonlarda harakat qilishni anglatadi. Bu musobaqalar davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatlarini shakllantiradi, yangiliklar va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Bizning maqolamizda yashil iqtisodiyot orqali raqobatni kuchaytirish asos bo'lib, u nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi. Barqaror yashil iqtisodiyot mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. M.M.Muhammedov, J.R.Zaynalov, U.N.Normurodov, I.I.Ayubov, Y.M.Halikov va boshqalar. Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2022. 520 b.
2. L. N. Xalikova. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024. 450 b.
3. Yu.P.Urunbayeva. Makroiqtisodiyot. Darslik/Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024 - 356 bet.
4. Shakarov A.B., Ulashev X.A. Makroiqtisodiyot: Darslik. – Samarqand: "SamDCHTI" nashriyoti, 2024. – 334 bet.
5. L.N.Xalikova, I.I.Ayubov, Z.U.Shodmonova, U.N.Normurodov. Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma/Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024 – 308 bet.
6. L.N.Xalikova, N.A.Kamilova, I.I.Ayubov, Z.U.Shodmonova. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma/Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2023 – 167 bet.


## ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА МУЗЕЙ ТУРИЗМИНИНГ ИЖТИМОИЙ -ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ


**УРУНБАЕВА ЮЛДУЗ ПИРНАЗАРОВНА** -- Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти и.ф.ф.док., доцент



**Аннотация:** мақола жаҳон туризмида энг ёш бўлган музей туризмини Ўзбекистон ҳаётида ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг маънавий, ижтимоий-иқтисодий аҳамиятини ёритишга бағишланган. Музей туризмини ташкил қилиш ва ривожлантириш йўналишлари бўйича таклифлар келтирилган.



**Калит сўзлар:** музей туризми, экспонат, галерея, янги тур, музей коллекцияси, стратегия, ҳудудий дастурлар, миллий туризм, инновация.


**Кириш.** Туризмнинг инновацияли ўзгаришларга мойил эканлигини яна бир бор исботлади. Асримизнинг бошланишида халқаро туризмда гастрономия туризми ташкил топди ва жадал ривожланишни бошлади. Шу

кунларда Ўзбекистонда гастрономия туризмини ташкил қилиш ва ривожлантириш муҳокама қилинмоқда[6]. Шунингдек, Ўзбекистонда миллий маданий туризми ҳам янги тур сифатида рўйхатдан ўтди[5].Туризмдаги халқаро экспертларнинг хулосалари бўйича давлатларда туризмнинг тараққиёт даражалари биринчидан, давлатда туризмнинг ресурслари ва бу ресурсларнинг хилма-хилли, жозибадор бўлишлигига иккинчидан, мавжуд ресурслардан туризмдаги турлар бўйича фойдаланиш даражаларига боғлиқ экан. Бу жуда тўғри хулоса чунки, маълум бир давлатдаги туристик оқимга янгидан ташкил қилинган турлар ҳам ўзнинг миқдорий ҳиссасини албатда қўшади. Жаҳондаги давлатларда янги турларни ташкил қилиш туризмдаги устивор йўналишни эгаллади. Мамлакатимизнинг миллий туризмида ҳам янги истиқболли турларни ривожлантириш йўналишида жадал тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2016 йил 2-декабрдаги ПФ-4861 сонли тарихий Фармонида: -“Мамлакатда туризмни жадал ривожлантириш, мавжуд улкан туризм салоҳиятидан янада тўлиқ ва самарали фойдаланиш, анъанавий маданий-тарихий туризм билан биргаликда туризмнинг бошқа салоҳиятли *турларини–ривожлантириш, ички, кириш ва чиқиш туризмини комплекс ривожлантиришнинг миллий ва ҳудудий дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш”* белгиланган[1].

Биз ҳам Президентимизнинг Ўзбекистонда 2016 йил 2-декбрдаги халқаро туризмдаги янги тенденцияларни, йўналишларни ҳисобга олиб, Ўзбекистонда янги-*“музей туризми”*ни ташкил қилиш ва ривожлантириш миллий туризмимиздаги долзарб масалалардан бири деб ҳисоблаймиз.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.**Музей туризми атамаси Европа музейларнинг анъанавий фаолиятида ўтган асрнинг 70-йилларида ёзила бошланди. Музей туризмининг келиб чиқиши Ғарб музейларининг музей бюджетига янги, қўшимча молиявий таъминотни яхшилаш йўлидаги изланишлари бўлиб, бу изланишлар натижасида музейларни туризмга тортиш ғояси келиб чиқди[7.8.]. Ғарб давлатларида музейлар фаолиятидаги асосий мезон музей экспонатлари-*музей коллекцияси сўзи-музейга келувчилар* шиорига айлантирилди. Болаларни мактаб ёшида музейларга олиб бориш уларнинг болаликдан мустақил касб танлашига, қизиқтиришига асос бўлиши ҳақида хулосалар ёзилди [9].

Европа давлатларида музей туризмининг тобора ривожланиб бораётганлигига Осиё қитъасида биринчилардан бўлиб Россиялик олимлар эътибор қилишди ва ўтган асрнинг 90 йилларидан Россия музейларидан туризмда фойдаланиш тадқиқотларини бошлашди. Ҳозирга келиб, Россияда музей туризмининг таърифи, мазмун ва моҳияти, ривожлантиришнинг истиқболлиги ҳақида кўплаб илмий ишлар нашр қилинди, ўқув-услубий қўлланмалар ёзилди [4.5.].

Жаҳон туризмининг ривожланиши тенденцияларида музей туризмининг жадал ривожланиб бораётганлигини эътиборга олиб, ватанимизда халқаро миқёсларда эътироф этилган кўплаб музейларимизнинг мавжудлигини ва бу музейлардан туризмда фойдаланишнинг истиқболлигини ҳисобга олиб, Ўзбекистонда аҳолининг маънавий-маданий фаравонлигини оширишда, музей туризмини ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг мамлакатимиз ҳаётидаги муҳим ўрнини белгилаш, услубий асосларини ишлаб чиқиш илмий-амалий тадқиқотларини бажаришга киришдик. Шу йўналишларда дастлабки ишлар эълон қилинди [10.11.12.13.14.15.]

**Тадқиқот методологияси.**Тадқиқотни бажаришда аналитик ва статистик таҳлиллар, кузатув, ижтимоий сўров усулларидан, илмий экспедиция натижаларидан фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Биз Ўзбекистонда музей туризмини ташкил қилиш ва ривожлантиришда Россиялик мутахассисларнинг тадқиқотларини ўрганишимиз тўғрироқ бўлади. Чунки, Россиялик мутахассисларнинг илмий ишлари бизга кўпроқ тушунарли ҳисобланади. Иккинчидан, Россия давлатининг музейлари халқаро музей туризми индустриясига жадал кириб бораётганлигини қуйида келтирамиз.

Россия туризми экспертларининг хулосалари бўйича ҳозирга келиб, Россияда музей туризмининг динамикаси 10-15% ўртача ўсишни ташкил қилмоқда. Бу ўсишда Санкт-Петербург, Москва, Калининград, Олтин халқа шаҳарлари етакчилик қилаяпти. Ҳаммамизга маълумки, қайд қилинган шаҳарларда дунёнинг энг катта ва машҳур музейлари бор. Санкт-Петербург шаҳаридаги туризмни ривожлантириш қўмитасининг маълумотлари бўйича бу шаҳар музей туризмида биринчи ўринни эгаллайди, туристларнинг 25-30% и Россиянинг энг катта шаҳарларидаги музейларга келишади. Санкт-Петербургдаги «Эрмитаж»га 2021-йилда 2,65 млн. турист ташриф буюришган.Третьяков галереясига- бу йилда 1,9 млн(дунё бўйича 20-ўрин), А. С. Пушкин номидаги музейга 1,22 млн турист келишган [2].

Халқимиз онгида миллий ғурур ва ифтихор, истиқлол ва Ватанга садоқат туйғуларини кучайтириш йўлида музейлардан самарали фойдаланиш, музейларни замон талабларига мос юқори малакали мутахассислар билан таъминлаш каби муҳим масалалар юзага чиқмоқда. Учинчидан, замонавий ҳаётда музейларнинг жамият ҳаётида актив иштирок этишига кўмак берувчи янада кенг дастурларини амалга ошириш талаб қилинаяпти. Шундай дастурлардан бири ватанимизнинг миллий туризмида янги тур-«музей туризмини» ташкил қилиш ва ривожлантириш ҳисобланади.

Олимларнинг башоратлари бўйича 2033 йилга бориб музей туризмининг бутунжаҳон бозоридаги даромадлари ҳар йили 11% га кўтарила бориб 75 млрд.долларга етади. Бундай башоратларга асослани дунёда энг катта музейларга эга бўлган Европа давлатлари эндигина ташкил топаётган музей туризмни шиддат билан ривожлантирмоқдалар[3].

Халқаро тадқиқотлар компанияси (Future Market Insights (FMI) нинг ҳисоботи бўйича маданий туризм турларининг ичида музей туризмидаги туристик оқим олдимиздаги 10 йилликда биринчи ўринга чиқади. Шунингдек, ҳисоботда келтирилишича халқаро туризм иқтисодиётига 2023 йилда музей туризми 25,2 млрд. доллар фойда келтирди, яъни башоратлар тўғри чиқиб, музей туризмининг ўртача йиллик ўсиб бориши 11,5% ни ташкил қилди.

Future Market Insights (FMI) башорат бўйича дунёдаги энг оммавий музейларга туристик оқим 10-15%гача ошади. Фарангларнинг машҳур Лувр музейи, Лондондаги табиат тарихи музейи,Чикагодаги бадиий институт музейи, АҚШдаги Метрополитен музейлари ҳозирдан етакчиликни қўлга олган. “Шунинг учун ҳам музей туризми жаҳон туризм индустриясининг муҳим тармоғига айланиши керак. Чунки, глобализмнинг салбий йўналишларига эътибор кучаяётган ҳозирги замонамизда жаҳон халқлари музейларда сақланаётган ғаройиб тарихий экспонатлар орқали бири-бирининг тарихий тараққиётларини, бу тарихий, маданий тараққиётга қайси халқлар ва элатлар муносиб ҳисса қўшганликларини билиб оладилар, бу эса келажак авлодлар- ўқувчилар ва талабалар учун жуда муҳим” деган хулосалар бор[16].

Келтирилганлардан хулоса шулким биз ҳам умумжаҳон миқёсларидаги музейларимиздан халқаро музей туризмида фойдаланишнинг энг янг технологияларини ишлаб чиқишимиз зарур. Халқаро музей туризмида туристлар учун музей экскурсияларини Тошкент шаҳридаги Темурийлар тарихи давлат музейига, Ўзбекистон Давлат тарихи музейи, Ўзбекистон амалий санъат музейига мукаммал равишда ишлаб чиқиш ҳам музейларимизнинг халқаро миқёслардаги шон-шуҳратини оширади. Бу музейларга ватанимизга ташриф буюрган давлатларнинг бошлиқлари биринчи навбатда киришмоқда.

Самарқанд шаҳридаги “Афросиёб” музейи, Қорақалпоғистондаги И.В.Савицкий номидаги давлат тарихий музейи дунёнинг ноёб экспонатларига бой музейлар ҳисобланади. Маълумки, Фарангларнинг Лувр музейи инсонларнинг ташрифи бўйича дунёдаги биринчи ўринни эгаллаган музей ҳисобланади (йиллик ташриф 5 млн. турист атрофида). Франглар ва Америкаликлар эса Савицкий номидаги давлат тарихий музейини “Саҳродаги Лувр” деб аташади.Сўнги йилларда маълум бўлдики, Қорақалпоғистондаги И.В. Савицкий номидаги давлат тарихий музейини чет элликларнинг барчаси “Саҳродаги Лувр” деб аташмоқда. АҚШдаги машҳур “Метрополитен” музейи дунёда биринчилардан бўлиб бу музейни дунёнинг энг қизиқарли, инсоният тараққиёти билан боғлиқ тарихий экспонатлар бой музей деб тан олди. Бундай халқаро рекламалардан унумли фойдаланишимиз лозим.

Ўзбекистонда музей туризмини ташкил қилиш ва ривожлантириш музейлар фаолиятини тараққиётга бошлайди. Бу тараққиётга қўшилиш учун музей туризмида музейлардан фойдаланишни ташкил қилиш ва

ривожлантиришга жадал киришиш керак. Иккинчидан, мамлакатимизда сўнги йилларда халқимизнинг, айниқса ёш авлодларнинг музейларга қизиқиши ва ташриф буюришлари, бу ташрифларни ташкил қилувчи ташаббускорлик ҳам, айни вақтда, дунё халқларининг, халқаро туристлар нинг, ватанимизга ташриф қилган давлат раҳбарларининг музейларимизга қизиқишлари ҳам йилдан-йилга кучайиб бормоқда.

Музейларга аҳоли, биринчи навбатда, ўқувчи ва талаба-ёшларни янада кенг жалб этиш, шу орқали уларда ўзликни англаш, Ватанни севиш туйғуларини камол топтириш чора-тадбирларига алоҳида эътибор қаратилаётир. Жорий йилда мамлакатимиздаги ана шундай муассасаларда 1 минг 200 га яқин кўргазмалар, 73 мингдан ортиқ экскурсиялар уюштирилди. Аҳамиятлиси, йилнинг биринчи ярмида ушбу масканларга 18 миллиондан зиёд аҳоли ташриф буюрди. Уларнинг салмоқли қисми ёшлардан иборат экани ғоятда қувонарли.

Дунёга машҳур музейларнинг тажрибаларидан маълум бўлмоқдаки, билимли, зиёли халқаро туристлар албатда биринчи навбатда келган мамлакатнинг аҳолиси тараққиёти тарихи, миллий маданияти, урф-одатлари-яъни этнографияси билан қизиқишади. Қайд қилинган иккала талабнинг таҳлили натижалари шундан иборатки, ватанимиздаги барча музейларга халқаро туристларни ҳеч иккиланмасдан таклиф қилишимиз мумкин.

**Хулоса ва таклифлар:**

1.Жаҳон туризмида янги ва тобора оммавийлашиб бораётган музей туризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг замонавий тадқиқотларини амалга ошириш;

2.Музей туризмини ташкил қилиш ва ривожлантиришда янги лойиҳаларни ва дастурларни ишлаб чиқиш;

3.Музей туризмини ташкил қилиш ва ривожлантиришда ички ва халқаро музей туризмига хизмат қилувчи музейларни аниқлаштириш;

4.Туризмдаги янги музей туризми турини ривожлантиришнинг истиқболлилигини асослаш;

5.Музей туризмини ривожлантиришнинг истиқболли йўналишларини ва бу йўналишларни амалга оширишнинг стратегик режаларини ишлаб чиқиш.

6.Янги иш ўринларини таъминлашда музей туризми хизматларини ривожлантиришнинг иқтисодий самарадорлигини тадқиқ қилиш;

7. Музей туризиминиг мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсирини баҳолаш имкониятларини аниқлаш.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг -«Ўзбекистон Республика сининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони2016 йил 2-декабрь. ПФ-4861.

2.Будагян, Р.Р. Тенденции применения цифровых технологий в пространстве современного музея // Сфера культуры. 2021. № 1(3). -С. 61-68

3.Никифорова А.А. Музеи в туристском пространстве регионов // ЦИТИСЭ. 2022. № 2. С.367-373.

4. РомančукА. В. ,Музейный туризм, Учебно-методическое пособие, санкт-Петербург, 2010.-43 с. Ляшко, А.В. Музейный туризм в России. Эволюция формата. Вестник Санкт-Петербургского университета. Политология. Международные отношения. 2012. №3. -С. 21-26.

5.Самаров Х.Қ,Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда миллий мерос бойликларидан фойдаланишнинг истиқболли йўналишлари, Phd. автореферати, Самарқанд, 2023, 64 б.

6.Қаҳҳоров Ж.А., “Ўзбекистонда гастрономия туризмини ривожланти ришнинг мақсади ва вазифалари”. “СЕРВИС” илмий-амалий журнали, 2019 йил. №3-сон. 83-88 б.

7.Herreman, Y. Museums and tourism: culture and consumption // Museum international. –1998. – Vol. L, № 3. – Pp. 4-12.

8. Perera, K. The Role of Museums in Cultural and Heritage Tourism for Sustainable Economy in Developing Countries // Material of International Conference on Asian Art, Culture and Heritage,1913, p.210

9.Mensch P. van. Museology and management: enemies or friends? Current tendencies in theoretical museology and museum management in Europe // Museum management in the 21st century. Ed. by E. Mizushima. Tokyo, 2004. p.59

10.Ўринбоева Ю.П., Музей туризмини ривожлантириш – аҳоли фаровонлигини оширишнинг асосий омили. СЕРВИС, илмий-амалий ж., Самарқанд, 2024,2\1 сон,107-111 б.

11.Ўринбоева Ю.П., Ўзбекистонда янги-музей туризмини ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг мақсади ва вазифалари. СЕРВИС, илмий-амалий ж., Самарқанд, 2024,2\1 сон, 83-87 б.

12.Ўринбоева Ю. П., Янги Ўзбекистонда музей туризимини ривожлантиришнинг назарий асослари. BIZNES–ЭКСПЕРТ,№3, Тошкент, 2024 8-12 б.

13.Ўринбоева Ю.П., Музей туризми ва аҳоли турмуш даражаси. BIZNES –ЭКСПЕРТ №4, Тошкент, 2024 58-64 б.

14.Ўринбоева Ю.П., Аҳолининг маънавий маърифий қадриятлари дунёсини бойитиш, ёш авлодни ватанга мухаббат ва садоқат руҳида тарбиялашда музейларнинг аҳамияти. “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal,№2(16), Бухоро, 2024.-74-84бб.

15.Ўринбоева Ю.П., Иқтисодиёт таркибига туризмнинг янги турларини киритишнинг аҳамияти. “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal, №3(17), Бухоро, 202431-39бб.

16.DOI: http://doi.org/10.15350/2409-7616.2022.2.32

# ЎЗБЕКИСТОНДА АГРОХИЗМАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСИДА “ЭКОЛОГИК ТОЗА” МАҲСУЛОТЛАР ИШЛАБ ЧИҚАРИШ – “ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ”НИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ЙЎНАЛИШИ СИФАТИДА

**Эгамкулов Давлатбек Баходир ўғли-** СамИСИ магистри
**Мухаммедов Мурод Мухаммедович-** СамИСИ, и.ф.д., проф.

**Аннотация:** Ўзбекистонда миллий иқтисодиётни юксалтиришнинг стратегик йўналиши сифатида “яшил иқтисодиёт”га ўтиш концепциясини амалга оширишда агрохизматларни ривожлантириш орқали “экологик тоза” маҳсулотларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйишнинг роли ва аҳамияти илмий жиҳатдан асослаб берилган.

**Калит сўзлар: “**Яшил иқтисодиёт”, “экологик тоза” маҳсулот, агрохизмат, модернизация, диверсификация, “яшил агросервис”.

Янги Ўзбекистон миллий иқтисодиётини жадал суръатлар билан ривожлантиришнинг муҳим йўналишларидан бири – “яшил иқтисодиёт” тамойилларини шакллантириш ҳисобланади. Мамлакатимизда “яшил иқтисодиёт”ни тизимли асосда йўлга қўйиш ва ривожлантириш қишлоқ хужалиги тармоги ривожига, айниқса ушбу тармоқда агросервис хизматлари сифати ва ҳажмига бевосита боғлиқ. Ушбу хизматларни ривожлантиришга катта эътибор қаратиб, Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномасида вилоятлар олдига шундай вазифани қўйган эди: “Барча вилоятларда ... “ягона дарча” тамойили асосида 100 дан ортиқ агрохизматлар кўрсатиш йўлга қўйилади.”[56]. Кейинчалик Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида Президент томонидан “... илм-фан ва инновацияга асосланган агрохизматлар кўрсатиш тизимини такомиллаштириш”[57] вазифаси қўйилди.

Агросервис корхоналари ўзларининг аксарият хизматлари билан аграр сохада маҳсулотларини ишлаб чиқариш жараёнида иштирок этади ва бевосита маҳсулот ишлаб чиқариш даражасига таъсир кўрсатади. Айниқса бу Республикамизда “яшил иқтисодиёт”ни шакллантиришда алоҳида аҳамият касб этади.

Бугунги кунда агросервис субъектлари томонидан кўрсатиладиган ҳар хил турдаги хизматлар, аграр соха хўжаликларида “яшил иқтисодиёт”ни ташкил этиш, уни барқарор ривожлантириш ва самарадорлигини оширишга таъсир этувчи асосий омиллардан бири бўлиб ҳисобланади. Шунинг учун ҳам агросервис агросаноат мажмуидаги ишлаб чиқариш инфратузилмасининг асосини ташкил этиб, унинг яна бир мухим жихати

[56] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2020 йил январь
[57] “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси” 2022 йил январь / https://president.uz/uz/pages/view/strategy

# MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XIZMAT KO‘RSATISHNING O‘RNI

**Urunbayeva Yulduz Pirnazarovna— I.f.f.d., dotsent**
**Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti**
**Ulduzurunbaeva75@gmail.com**
**Tel: +998905052105**
**Sultanova Marjona Raxmadulla qizi-**
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xizmat ko‘rsatish sohalarining tutgan o‘rni va ahamiyati, iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlari, uning hajmini oshirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va rejalashtirilayotgan amaliyotlar qisqacha yoritib berilgan. Bundan tashqari, ba’zi statistikalar ko‘rib chiqildi va ular orasida o‘zaro solishtirishlar amalga oshirildi.

**Tayanch so‘zlar:** Xizmat ko‘rsatish, milliy iqtisodiyot, ehtiyoj, yalpi ichki mahsulot, sektor, xizmatlar eksporti va importi, innovatsiya, texnologiya, logistika, lokomativ tarmoqlar.

O‘zbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligi kamol topishi bilan uning bozor munosabatlariga asoslangan Milliy iqtisodiyoti shakllana boshladi. Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotning lokomativ tarmoqlarini aniq belgilab olgan holda milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish imkoniyatlari yaratib kelinmoqda. Shu jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirishda xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘rni muhim deb belgilab olinib, uning ustida turli chora-tadbirlar ishlab chiqilyapti.

Xizmat ko‘rsatish - bu mijozlarning ehtiyojlari, istaklari yoki intilishlarini qondiradigan xizmatlarni taqdim etish uchun mo‘ljallangan texnologiya va tashkiliy tarmoqlar to‘plamidir. Boshqa so‘z bilan aytganda, aholi ehtiyojlarini ularning talablaridan kelib chiqqan holda bajarish va uning ortidan daromad olishdir. Bilamizki, xizmat ko‘rsatish dunyodagi eng serdaromad soha hisoblanadi va shuning uchun ham bugungi kunda davlatimizda ham bu sohani rivojlantirish maqsadida turli xil chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, bu sohada aholiga yengillik yaratish maqsadida davlat tomonidan turli ko‘rinishdagi qonun va qoidalar ko‘rib chiqilyapti.

Ma’lumki, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi daromadolarini va ularning turmush darajasini oshirishga erishish hisoblanadi. Natijada, bu turdagi barcha tadbirkorlik obyektlari xizmat ko‘rsatish sohasini talab qiladi va bu o‘z navbatida davlat iqtisodiyotiga katta miqdordagi ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biz xizmatlar sohasini deyarli hamma yo‘nalishda ko‘ra olamiz. Masalan, aloqa, moliya, transport, qurilish, turizm xizmatlari va savdo sohalari eng kerakli sohalarda hisoblanadi.

2024-yil yanvar-iyun oylari oxirlariga ko‘ra, O‘zbekiston YaIM (yalpi ichki mahsulot)ining 49,9 % qismi xizmat ko‘rsatish sohalariga to‘g‘ri keladi. Bu esa xizmatlar sohasining o‘sib borayotganidan dalolatdir. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan davlatlar qatorida turuvchi Germaniya YaIMining qariyb 70% qismi bu sohaga to‘g‘ri keladi**.** Xulosa shundan iboratki, har bir davlat milliy iqtisodiyotining rivojlanishida xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘rni o‘ta muhimdir. Jumladan, 2023-yilning 8 oyligida korxona va tashkilotlar tomonidan jami 116,8 trln so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi. 2022-yilning mos davrida ushbu ko‘rsatkich 89,3 trln so‘mni, davriy o‘sish esa 18,2 foizni tashkil etdi. Shuningdek, xizmatlar sohasida moliya, aloqa va axborotlashtirish, ta’lim va transport xizmatlaridagi o‘zgarishlar boshqa turdagi xizmatlarga nisbatan yuqori o‘sish bo‘yicha natijalarni qayd etgan. Shunday qilib, xizmatlar hajmining o‘tgan yillarga nisbatan jadal o‘sib borishi aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining yuqori o‘sishiga, aholi daromadlarining ko‘payishiga hamda ko‘plab bo‘sh ish o‘rinlarini paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Har bir sohada bo‘lgani kabi, xizmatlar sohasining rivojlanishida ham biroz muammolar mavjud. Shunga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, mehnat salohiyati samaradorligini ta’minlash, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini to‘liqroq qondirish bilan bog‘liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi. Agar shu kabi muammolarning yechimini topib, uning sifatini yaxshiroq oshiradigan bo‘lsak, albatta, bu sohada katta va ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi.

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo‘llab quvvatlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari” tasdiqlandi va ularning statistikasini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari 2023-yil yanvar-noyabr oylari hisobiga ko‘ra, quyidagicha taqsimlandi:

-xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi-65,0%

-xizmatlar sohasida korxona va tashkilotlar ulushi-68,3%

-aholi jon boshiga xizmatlar hajmi-5 796,0 so‘m va boshqa ulushlardan tashkil topdi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida eksport va importning roli muhim ahamiyatga ega, chunki ular global iqtisodiyotning rivojlanishiga va mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy aloqalarining mustahkamlashiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmat ko‘rsatish sektori eksport va importni amalga oshirgan holda mamlakatlarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

1. Xizmat ko‘rsatish eksportining ahamiyati

Xizmatlar eksporti, ya’ni boshqa mamlakatlarga xizmatlar yetkazib berish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi va mamlakatlarga yangi bozorlarga kirish imkoniyatini yaratadi. Xizmatlar eksportining ba’zi asosiy shakllari quyidagilardir:

Sayohat va turizm: Mamlakatlar o‘zlarining turistik xizmatlarini eksport qilish orqali xalqaro daromadlarni oshirishadi. Masalan, mehmonxona xizmatlari, turistik yo‘nalishlar va madaniy tadbirlar orqali xizmat ko‘rsatiladi.

Ta’lim: O‘quvchilar va talabalarning chet elga ta’lim olish uchun kelishi ham xizmat ko‘rsatish eksportining bir turi hisoblanadi.

Moliyaviy xizmatlar: Banklar, sug‘urta kompaniyalari, va boshqa moliyaviy xizmatlar eksporti orqali xalqaro bozorda ishtirok etish mumkin.

Konsalting va texnik xizmatlar: Yuridik, menejment, moliyaviy, IT va boshqa konsalting xizmatlarining eksporti global bozorda talab yuqori bo‘lgan xizmat turlaridir.

Xizmatlar eksporti mamlakatlarga yuqori daromadli sohalarga kirish imkonini yaratadi va ish o‘rinlarini yaratadi, iqtisodiy o‘sishni rag'batlantiradi.

2. Xizmat ko‘rsatish importining ahamiyati

Xizmatlar importi, ya’ni boshqa mamlakatlardan xizmatlar olib kelish, mamlakatning ichki bozori va iqtisodiyoti uchun ham muhimdir. Xizmatlar importining ba’zi afzalliklari:

Innovatsiya va texnologiyalar: Xizmatlar importi orqali mamlakatlar zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirishi mumkin. Masalan, ilg‘or texnologiyalarga asoslangan IT xizmatlari, masofaviy tibbiy xizmatlar yoki boshqaruv tizimlarining importi.

Ko‘nikmalar va bilimlar: Chet eldan kelgan malakali xizmatlar va konsalting xizmatlari orqali mamlakatlar yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

Samaradorlikni oshirish: Boshqa mamlakatlardan olib kelinadigan xizmatlar yordamida ichki iqtisodiy tizimlarni yanada samarali qilish mumkin, masalan, logistika, transport, va boshqa xizmatlar.

Xizmatlar ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli beqiyos. Xizmatlar sektori nafaqat iqtisodiy o'sishni ta’minlaydi, balki ijtimoiy farovonlikni oshiradi, innovatsiyalarni rivojlantiradi va xalqaro savdoni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, xizmatlar sektori ishlab chiqarish, savdo, investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanishning barcha jihatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini va o‘sishini ta'minlaydi. Xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyot uchun juda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sektori ishlab chiqarishdan keyin eng katta o'sish ko‘rsatkichlariga ega bo'lib, ko‘plab mamlakatlarda u iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Bulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, xizmatlar ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda eng muhim omillardan sanaladi. Shuning uchun , bu soha muammolari yechimining asosiy yo‘li- sifatli xizmat ko‘rsatuvchi, raqobatdosh soha tarmoqlarini aholi istiqomat qilayotgan maskanlarga ko‘paytirish hisoblanadi

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘runbayeva Y.P, “Aholi bandligini oshirishda xizmat ko‘rsatish sohasining o‘rni”, 2023
2. O‘zbekiston respublikasi prezedenti huzuridagi statistika agentligi Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari
3. https://ijtimoiy.uz/ sayti
4. B. Ismailov ilmiy maqolasi
5. https://andstat.uz/ sayti
6. Mirzaev Q.J., Pardaev M.Q. "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti" o‘quv qo‘llanma, Samarqand-2022

# HUDUDDA TURIZM INFRATUZILMASINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAYYOHLAR OQIMIGA TA’SIRINI BAHOLASH

**F.D.Jo‘rayev -Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori**
**U.Z.Raximova -SamISI, “Oliy matematika” kafedrasi katta o‘qituvchisi**

**Annatatsiya.** Ushbu tadqiqotda turizm sohasida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ish o‘rinlari, xorijiy va mahalliy investitsiyalar hamda sayyohlar oqimi dinamikasini o‘rganish orqali turizm infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi aniqlangan. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarning turizm sektoriga qanday o‘zgarishlar olib kelayotganini baholash uchun ekonometrik modellar va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Kalit so‘zlar.** Turizm, ekonometrik model, investitsiyalar, tahlil, innovatsion texnologiya, turistlar oqimi.

**Kirish.** Turizm sohasi global iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi, bandlik darajasi va investitsion jozibadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida ham turizm sohasining rivojlanishiga katta e’tibor qaratilib, bu yo‘nalishda qator islohotlar va investitsiya dasturlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Samarqand viloyati o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham yirik turistik markaz sifatida shakllanmoqda. So‘nggi yillarda viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi ortib, mehmonxona, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida jadal o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi turizmning iqtisodiy samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini baholash dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda.

Zamonaviy turizm infratuzilmasi raqobatbardosh bo‘lishi uchun an’anaviy yondashuvlardan tashqari innovatsion texnologiyalar ham faol joriy etilishi zarur. Raqamli xizmatlar, onlayn bron qilish tizimlari, aqlli transport tarmoqlari, interaktiv muzeylar va ekologik barqaror turizm kabi yangi texnologiyalar Samarqand viloyatining turizm sektoriga integratsiya qilinib, ushbu hududning

**“Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarida yashil iqtisdiyotni rivojlantirish muammolari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**2025-yil 18-aprel**

**“STAP-SEL” MChJ nashriyoti,**
**Samarqand - 2025.**

**ISBN:** 978-9910-648-05-2

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 09.04. 2025 y.
© **“STAP-SEL” MChJ** nashriyoti
Samarqand – 2025 y.

8160

16.04. 2025 y. chop etildi
**Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.**
**“Times New Roman” garniturasi.**
**Nashr bosma tabog‘i 34.62**
**Buyurtma № 0013A/25. Adadi 50 nusxa**

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.**
**LICENSE № 025316.**
**REESTR № X-119112.**
**Manzil:** Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.

**ISBN:** 978-9910-648-05-2

